2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 316.6:314.7:343.85:305

Kasimov Sanjar Tulyaganovich,
ISFT instituti mustaqil izlanuvchisi

MIGRATSIYA JARAYONIDA HUQUQBUZARLIK PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHNING GENDER ATRIBUTLARI

Annotatsiya. Maqolada migratsiya jarayonida huquqbuzarlik profilaktikasini amalga oshirishning gender atributlari ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan. 374 nafar ichki migrant ishtirokidagi empirik tadqiqotda shaxsiy xavotirlanish va irratsional ustanovkalarning jins omiliga ko‘ra farqlari aniqlangan. Natijalar ayollarda umumiy va baholovchi vaziyatlar bilan bog‘liq xavotirlanish, erkaklarda esa shaxslararo xavotir, katastrofizatsiya va o‘ziga nisbatan qat’iy talablar nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatgan. Aniqlangan gender farqlari huquqbuzarlik profilaktikasida differensial va genderga sezgir yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: migratsiya, huquqbuzarlik profilaktikasi, gender atributlari, ichki migrantlar, shaxsiy xavotirlanish, irratsional ustanovkalar, katastrofizatsiya, psixologik risk, genderga sezgir profilaktika.

ГЕНДЕРНЫЕ АТРИБУТЫ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ МИГРАЦИИ

Аннотация. В статье представлен социально-психологический анализ гендерных атрибутов профилактики правонарушений в процессе миграции. В эмпирическом исследовании с участием 374 внутренних мигрантов выявлены гендерные различия в показателях личностной тревожности и иррациональных установок. Результаты показали более выраженную общую тревожность и чувствительность к оценочным ситуациям у женщин, тогда как у мужчин выше проявлялись тревожность в межличностных отношениях, катастрофизация и жесткие требования к себе. Выявленные различия обосновывают необходимость дифференцированного и гендерно-чувствительного подхода к профилактике правонарушений среди мигрантов.

Ключевые слова: миграция, профилактика правонарушений, гендерные атрибуты, внутренние мигранты, личностная тревожность, иррациональные установки, катастрофизация, психологический риск, гендерно-чувствительная профилактика.

GENDER ATTRIBUTES OF DELINQUENCY PREVENTION IN THE MIGRATION PROCESS

Abstract. The article provides a socio-psychological analysis of gender attributes in the prevention of delinquent behavior during migration. An empirical study involving 374 internal migrants identified gender differences in personal anxiety and irrational attitudes. The findings indicate higher levels of general anxiety and sensitivity to evaluative situations among women, whereas men demonstrated higher interpersonal anxiety, catastrophizing, and rigid self-directed demands. These gender-specific differences substantiate the need for differentiated and gender-sensitive approaches to delinquency prevention among migrants.

Keywords: migration, delinquency prevention, gender attributes, internal migrants, personal anxiety, irrational attitudes, catastrophizing, psychological risk, gender-sensitive prevention.

Kirish. Zamonaviy migratsiya jarayonlari shaxsning nafaqat yashash va mehnat sharoitlarini, balki uning ijtimoiy munosabatlari, psixologik moslashuvi, emotsional holati va voqelikni kognitiv baholash tizimini ham o‘zgartiruvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Yashash muhitining o‘zgarishi, yangi ijtimoiy aloqalarni shakllantirish zarurati, mehnat va moddiy mas’uliyatning ortishi, odatiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining transformatsiyasi ichki migrantning psixologik resurslariga qo‘shimcha talab qo‘yadi. Bunday sharoitlarda xavotirlanish va irratsional ustanovkalar migratsion moslashuvning muhim psixologik indikatorlari sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

A.M. Prixojan xavotirlanishni shaxsning muayyan vaziyatlarni xavfli yoki tahdidli sifatida idrok etishga moyilligini aks ettiruvchi nisbatan barqaror psixologik tuzilma sifatida tavsiflaydi [1]. Xavotirning shakllanishida obyektiv vaziyatning o‘zigina emas, balki shaxsning ushbu vaziyatni qanday subyektiv baholashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. R.S. Lazarus va S. Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stressning kognitiv baholash konsepsiyasiga ko‘ra, psixologik zo‘riqish tashqi talablarning mavjudligi bilangina emas, balki shaxsning ularni o‘z imkoniyatlari va resurslariga nisbatan qanday baholashi bilan belgilanadi [3].

Mazkur jihat A. Ellisning ratsional-emotiv yondashuvi bilan hamohangdir. Unga ko‘ra, emotsional reaksiyalarning kuchi voqea-hodisalarning bevosita ta’siridan ko‘ra, ular haqidagi qat’iy, absolyutlashtirilgan va irratsional e’tiqodlar bilan chambarchas bog‘liq [2]. “Men albatta muvaffaqiyatga erishishim kerak”, “boshqalar menga nisbatan aynan shunday munosabatda bo‘lishi lozim”, “muvaffaqiyatsizlik juda dahshatli” singari rigid kognitiv konstruksiyalar murakkab hayotiy vaziyatlarda psixologik zo‘riqishni kuchaytirishi mumkin.

Xavotirlanishning jinsiy differensiasiyasi ham zamonaviy psixologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. C.P. McLean va E.R. Anderson, shuningdek, C.P. McLean va hammualliflarining tadqiqotlarida xavotir reaksiyalari va xavotir buzilishlarining namoyon bo‘lishida jinsga bog‘liq farqlar mavjudligi ko‘rsatilgan [4; 5]. Biroq mazkur farqlar barcha psixologik komponentlarda bir xil yo‘nalishda namoyon bo‘lmaydi. Migratsion tajriba ham gender rollari, ijtimoiy

kutilmalar, mas'uliyat va mavjud resurslar bilan o'zaro ta'sirga kirishib, erkak va ayollarda turlicha psixologik reaksiyalarni yuzaga keltirishi mumkin [6; 7]. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda ichki migrantlarning shaxsiy xavotirlanishi va irratsional ustanovkalari strukturasidagi jinsiy farqlarni aniqlash hamda ularning ijtimoiy-psixologik mazmunini ochib berish asosiy empirik vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Metodologiya. Psixodiagnostik kompleks doirasida shaxsiy xavotirlanishning maktab bilan bog'liq xavotirlanish, o'zini o'zi baholash bilan bog'liq xavotirlanish, shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish, irratsional tasavvurlar bilan bog'liq xavotirlanish hamda shaxsiy xavotirlanishning umumiy darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlari baholandi. Xavotirlanish fenomenining nazariy va diagnostik talqinida A.M. Prixojanning yondashuvlariga tayanildi [1].

Shuningdek, respondentlarning kognitiv baholash tizimini aniqlash maqsadida A. Ellisning ratsional-emotiv konsepsiyasiga asoslangan irratsional ustanovkalar diagnostikasi qo'llanildi [2]. Unda katastrofizatsiya, o'ziga nisbatan qat'iy talablar, boshqalarga nisbatan qat'iy talablar, frustratsion tolerantlik, baholovchi ustanovka va tafakkurning ratsionallik darajasi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Mazkur metodika natijalarini sharhlashda shkalalarning ball yo'nalishi metodika kalitiga muvofiq hisobga olinishi zarur.

Tadqiqotning nazariy-metodologik negizini shaxs xulq-atvorining ijtimoiy determinatsiyasi va faoliyat konsepsiyalari (A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn), ijtimoiy-kognitiv yondashuv (A.Bandura), maydon nazariyasi (K.Levin), rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (I.Ajzen), stress va kopingning tranzaksion modeli (R.Lazarus, S.Folkman), akkulturatsiya va migratsion moslashuv konsepsiyasi (J.Berry), gender sxemalari nazariyasi (S.Bem), ijtimoiy rollar nazariyasi (A.Eagly), shuningdek, deviant xulq-atvor, ijtimoiy nazorat, risk va himoya omillarining zamonaviy ijtimoiy-psixologik yondashuvlari tashkil etadi [2]. Mazkur nazariyalar migratsiya sharoitida huquqbuzarlik xavfining shakllanishi hamda uning profilaktikasida erkak va ayollarga xos psixologik, ijtimoiy va xulq-atvoriy atributlarni kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda K.Levinning maydon nazariyasiga alohida metodologik ahamiyat berildi. Mazkur nazariyaga ko'ra, xulq-atvor shaxs va uni o'rab turgan psixologik muhitning o'zaro ta'siri mahsuli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, migratsiya jarayonida huquqbuzarlikka moyillikni faqat migrantning individual xususiyatlari bilan izohlash yetarli emas. Uning yuzaga kelishida yangi ijtimoiy muhit, mehnat sharoiti, iqtisodiy bosim, ijtimoiy nazoratning susayishi, diskriminatsiya, ijtimoiy izolyatsiya, referent guruhlar ta'siri va genderga xos ijtimoiy kutilmalar o'zaro ta'sir qiladi. Erkak va ayol migrantlarning bir xil migratsion vaziyatga turlicha psixologik javob berishi esa ularning ijtimoiy rollari, mas'uliyat sohasi, xavfni idrok etish va mavjud resurslaridan foydalanish xususiyatlari bilan bog'liq. Shu sababli huquqbuzarlik profilaktikasi shaxs-muhit tizimidagi genderga xos risk va himoya omillarini muvozanatlashtirishga yo'naltirilishi lozim [3].

A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi migratsiya sharoitida huquqbuzarlik xulqining shakllanishi va uning oldini olish mexanizmlarini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, xulq-atvor shaxsiy omillar, tashqi muhit va faoliyat natijalarining o‘zaro determinatsiyasi orqali shakllanadi. Migrantning noqonuniy yoki deviant xulq namunalarini kuzatishi, ularning referent guruh tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, huquqbuzarlikning jazolanmasligi haqidagi tasavvurlar yoki noqonuniy xatti-harakat orqali muayyan manfaatga erishish tajribasi bunday xulqning mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, huquqiy savodxonlik, ijobiy xulq modellari, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish kompetensiyasi va o‘z samaradorligiga ishonch profilaktik resurs vazifasini bajaradi. Gender nuqtai nazaridan erkaklarda tengdoshlar guruhi, raqobat va tavakkalchilikka asoslangan modellar, ayollarda esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yaqin munosabatlar va xavfsizlikka oid modellar profilaktik jarayonning differensial yo‘nalishlarini belgilashi mumkin [4].

I.Ajzenning rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi huquqbuzarlik profilaktikasining gender atributlarini shaxsning xatti-harakatga munosabati, subyektiv me’yorlari va xulqini nazorat qilish imkoniyatini idrok etishi orqali tahlil qilish imkonini beradi. Migratsiya sharoitida huquqqa zid harakatni sodir etish yoki undan voz kechish nafaqat vaziyatga, balki migrantning mazkur xatti-harakatni qanday baholashi, uning yaqin ijtimoiy muhiti bunday xulqqa qanday munosabatda bo‘lishi va shaxs o‘z xatti-harakatini boshqarishga qanchalik qodir ekanligini his etishiga bog‘liq. Shu ma’noda, profilaktik faoliyat erkak va ayol migrantlarda huquqbuzarlikka nisbatan salbiy ustanovkalarni mustahkamlash, prosotsial me’yorlarni faollashtirish hamda xulqiy o‘zini o‘zi nazorat qilish imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilishi kerak. Genderga xos ijtimoiy normalar va xulqiy kutilmalarning turlicha bo‘lishi profilaktika vositalarini differensiallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi [5].

Tadqiqot metodologiyasida R.Lazarus va S.Folkmanning stress va kopingning tranzaksion modeli hamda J.Berryning akkulturatsion stress konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Migratsiya jarayonida yangi madaniy va ijtimoiy muhitga moslashish, til to‘siqlari, ish topishdagi qiyinchiliklar, iqtisodiy beqarorlik, diskriminatsiya, ijtimoiy izolyatsiya va oilaviy munosabatlarning transformatsiyasi psixologik zo‘riqishni kuchaytirishi mumkin. Agar migrantda ushbu stressorlarni konstruktiv yengishga xizmat qiluvchi koping resurslari yetarli bo‘lmasa, agressiv, impulsiv, qochuvchi yoki ijtimoiy me’yorlarni buzuvchi xatti-harakatlarning yuzaga kelish xavfi ortadi. Bunda gender atributlari stressni idrok etish va unga javob qaytarish strategiyalarining mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi: erkaklarda muammoni kuch bilan hal etish, tavakkalchilik yoki tashqi yo‘naltirilgan reaksiyalar, ayollarda esa emotsional zo‘riqish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash izlash yoki ichki kechinmalarga yo‘naltirilgan strategiyalar nisbatan faolroq namoyon bo‘lishi

mumkin. Shu sababli huquqbuzarlik profilaktikasida genderga xos koping resurslarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaraladi [6].

Migratsiya jarayonida huquqbuzarlik profilaktikasining gender xususiyatlarini tushuntirishda S.Bemning gender sxemalari nazariyasi va A.Eaglyning ijtimoiy rollar konsepsiyasi ham muhim metodologik o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, erkaklik va ayollikka oid ijtimoiy tasavvurlar shaxsning o‘zini idrok etishi, xulqiy strategiyalarni tanlashi, xavfga munosabati, yordam so‘rashga tayyorligi va konfliktli vaziyatlardagi reaksiyalariga ta’sir qiladi. Migratsiya sharoitida an’anaviy gender rollarining transformatsiyasi, oiladagi maqom va iqtisodiy vazifalarning o‘zgarishi, erkaklarda “ta’minlovchi” roliga qo‘yiladigan bosim yoki ayollarda oilaviy va mehnat rollarini birlashtirish zarurati qo‘shimcha psixologik zo‘riqish manbai bo‘lishi mumkin. Natijada huquqbuzarlik profilaktikasi erkak va ayol migrantlarga nisbatan bir xil standart ta’sirlar majmui sifatida emas, balki ularning ijtimoiy rollari, xavf profili, psixologik resurslari va yordamga murojaat qilish xususiyatlarini hisobga oladigan genderga sezgir tizim sifatida tashkil etilishi metodologik jihatdan asoslanadi [7].

Shuningdek, tadqiqotda tizimli va risk-resurs yondashuvlari asosiy integrativ metodologik tamoyil sifatida qabul qilindi. Unga ko‘ra, migratsiya jarayonida huquqbuzarlikning yuzaga kelishi va uning profilaktikasi individual-psixologik, oilaviy, guruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va institutsional omillarning o‘zaro ta’siri orqali tushuntiriladi. Risk omillariga ijtimoiy izolyatsiya, diskriminatsiya, ishsizlik yoki beqaror bandlik, moddiy tanglik, agressivlik, impulsivlik, past huquqiy savodxonlik, disfunksional koping va salbiy referent guruhlar ta’siri kiritilsa, himoya resurslari sifatida emotsional o‘zini o‘zi boshqarish, ichki nazorat lokusi, konstruktiv koping, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, huquqiy bilim, prosotsial identifikatsiya va moslashuvchan kognitiv strategiyalar namoyon bo‘ladi. Ushbu omillarning erkak va ayollarda turlicha kombinatsiyada namoyon bo‘lishi huquqbuzarlik profilaktikasining gender-differensial modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shunday qilib, tadqiqotning nazariy-metodologik pozitsiyasiga ko‘ra, migratsiya jarayonida huquqbuzarlik profilaktikasining gender atributlari erkak va ayollarga xos alohida biologik yoki demografik belgilar majmui sifatida emas, balki shaxsning gender roli, ijtimoiy kutilmalari, stressga javob berish usullari, kognitiv baholash strategiyalari, xulqiy nazorat imkoniyatlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslari va migratsion muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ifodalovchi kompleks ijtimoiy-psixologik tizim sifatida talqin etiladi. Mazkur metodologik yondashuv huquqbuzarlik xavfini erta aniqlash, erkak va ayol migrantlar uchun differensial profilaktik choralarni belgilash hamda individual, guruhiy va institutsional darajadagi psixoprofilaktik mexanizmlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasi. Shaxsiy xavotirlanish shkalasining jins omili bo‘yicha farqlari tahlil etilganda maktab bilan bog‘liq xavotirlanish darajasi ($U=14689,0$; $p<0,01$), shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq xavotirlanish ($U=14988,5$; $p<0,05$)

hamda shaxsiy xavotirlanish darajasi (U=14022,0; p<0,01) kabi shkalalarda ishonchli farqlar qayd etilgani ma'lum bo'ladi. Maktab bilan bog'liq xavotirlanish ko'rsatkichida ayollarda ustunliklarning kuzatilishi ko'pincha ulardagi maktab bilan bog'liq og'riqli xotiralar asosida kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan baholashga intilish ko'lami bilan izohlanishi mumkin. Mazkur natija ayollarda ta'lim muhiti, o'quv faoliyatini baholash, pedagogik talablar, muvaffaqiyatsizlik ehtimoli hamda maktabdagi ijtimoiy-psixologik vaziyatlarga nisbatan emotsional sezgirlik nisbatan yuqoriroq namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bunday holatni maktab bilan bog'liq avvalgi emotsional tajribalarni chuqurroq qayta ishlash, baholovchi vaziyatlarning subyektiv ahamiyatini kuchliroq idrok etish hamda kutilayotgan natijalarga nisbatan xavotirning faollashuvi bilan psixologik jihatdan izohlash mumkin.

1-jadval

Shaxsiy xavotirlanish shkalasining jins omili bo'yicha farqlari (n=374)

Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	Erkaklar (N-194)	Ayollar (N-180)	U	p
Maktab bilan bog'liq xavotirlanish	173,22	202,89	14689,0	0,008**
O'zini o'zi baholash bilan bog'liq xavotirlanish	185,40	189,76	17052,5	0,697
Shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish	200,24	173,77	14988,5	0,018*
Irratsional tasavvurlar bilan bog'liq xavotirlanish	189,23	185,63	17124,0	0,748
Shaxsiy xavotirlanish darajasi	169,78	206,60	14022,0	0,001**

Izoh: * - p<0,05, ** - p<0,01.

Shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish ko'rsatkichida esa aksincha, erkaklarning o'rtacha rangi yuqoriroq bo'lib, 200,24 ni, ayollarda esa 173,77 ni tashkil etgan va ushbu tafovut statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlangan (U=14988,5; p<0,05). Bu natija erkaklarda shaxslararo munosabatlar jarayonida ijtimoiy mavqeni saqlash, tengdoshlar tomonidan qabul qilinish, raqobat, o'zini namoyon etish hamda munosabatlardagi ehtimoliy ziddiyatlarga nisbatan ichki zo'riqish kuchliroq yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. Shaxslararo aloqalarda o'z pozitsiyasini himoya qilish zarurati, ijtimoiy baholanishga sezgirlik va kommunikativ muvaffaqiyatsizlik ehtimolini subyektiv xavf sifatida qabul qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shaxsiy xavotirlanishning umumiy darajasi bo'yicha ham jinslar o'rtasida yuqori statistik ishonchlilikka ega farq kuzatildi (U=14022,0; p<0,01). Ayollarning o'rtacha rangi 206,60 ni tashkil etib, erkaklarning 169,78 ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Ushbu natija ayollarda turli ijtimoiy va ta'limiy vaziyatlarni xavf yoki psixologik noaniqlik manbai sifatida idrok etish, ehtimoliy salbiy

oqibatlarni oldindan baholash hamda emotsional kechinmalarga nisbatan yuqori sezgirlik tendensiyasi kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, shaxsiy xavotirlanishning yuqoriroq namoyon bo‘lishi faqat situativ qo‘rquv bilan emas, balki xavotirli vaziyatlarni oldindan prognoz qilish, o‘z xatti-harakatlari natijasini ko‘p marotaba ichki tahlil qilish hamda tashqi baholashga nisbatan sezgirlik kabi individual-psixologik mexanizmlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, o‘zini o‘zi baholash bilan bog‘liq xavotirlanish (U=17052,5; p>0,05) hamda irratsional tasavvurlar bilan bog‘liq xavotirlanish (U=17124,0; p>0,05) shkalalarida jinslar o‘rtasidagi tafovut statistik ahamiyatga ega emasligi qayd etilgan. Demak, o‘z shaxsiy imkoniyatlarini baholash bilan bog‘liq xavotirli kechinmalar hamda voqelikni irratsional tarzda talqin qilishga moyillik mazkur tanlanmada jins omiliga bevosita bog‘liq bo‘lmagan, nisbatan umumiy individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo‘lgan.

2-jadval

Irratsional ustanovkalar diagnostikasining jins omili bo‘yicha farqlari (n=374)

Shkalalar	O‘rtacha rang		Statistik qiymat	
	Erkaklar (N-194)	Ayollar (N-180)	U	p
Katastrofizatsiya	201,78	172,11	14689,0	0,008**
O‘ziga nisbatan qat’iy talablar	203,00	170,79	14453,0	0,004**
Boshqalarga nisbatan qat’iy talablar	173,22	202,89	14689,0	0,008**
Frustratsion tolerantlik	182,85	192,51	16557,5	0,388
Baholovchi ustanovka	189,06	185,82	17157,0	0,772
Tafakkurning ratsionallik darajasi	200,13	173,89	15009,5	0,019*

Izoh: * - p<0,05, ** - p<0,01.

Ichki migrantlardagi irratsional ustanovkalarning jins omili bo‘yicha farqlari tahlil etilganda katastrofizatsiya (U=14689,0; p<0,01), o‘ziga nisbatan qat’iy talablar (U=14453,0; p<0,01), boshqalarga nisbatan qat’iy talablar (U=14689,0; p<0,01) hamda tafakkurning ratsionallik darajasi (U=15009,5; p<0,05) kabi shkalalarda ishonchli farqlar qayd etilgani ma’lum bo‘ladi.

Katastrofizatsiya shkalasi bo‘yicha erkaklarning o‘rtacha rangi 201,78 ni, ayollarniki esa 172,11 ni tashkil etgan (U=14689,0; p<0,01). Mazkur natija erkak respondentlarda murakkab, noaniq yoki kutilmagan vaziyatlarning ehtimoliy salbiy oqibatlarini bo‘rttirib baholash, muammoning xavfli jihatlariga ortiqcha e’tibor qaratish hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni keskinroq idrok etish tendensiyasi nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Ichki migratsiya sharoitida yashash joyining o‘zgarishi, yangi mehnat muhiti, moddiy mas’uliyat va ijtimoiy mavqeni saqlash zarurati bunday kognitiv baholashlarning faollashishiga sharoit yaratishi mumkin.

O‘ziga nisbatan qat’iy talablar shkalasida ham erkaklarning o‘rtacha rangi (203,00) ayollarnikidan (170,79) sezilarli yuqori bo‘lib (U=14453,0; p<0,01), bizningcha, bu holat erkak ichki migrantlarda o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni mukammal bajarish, muvaffaqiyatga erishish, moddiy va ijtimoiy majburiyatlarni to‘liq ado etish zarurligiga doir qat’iy ichki me’yorlarning nisbatan kuchli shakllanganligi bilan bog‘liq. “Men albatta uddalashim kerak”, “xatoga yo‘l qo‘ymasligim lozim” kabi rigid talablarning kuchayishi shaxsning o‘z imkoniyatlarini ortiqcha nazorat qilishi, muvaffaqiyatsizlikka nisbatan sezgirligi va ichki zo‘riqishining ortishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, boshqalarga nisbatan qat’iy talablar shkalasida aksincha holat kuzatilgan: ayollarning o‘rtacha rangi 202,89 ni, erkaklarniki esa 173,22 ni tashkil etib (U=14689,0; p<0,01), ayol respondentlarda atrofdagilarning xatti-harakati, mas’uliyati, munosabati va ijtimoiy me’yorlarga rioya etishiga nisbatan yuqoriroq talabchanlik kuzatiladi. Ichki migratsiya sharoitida yangi ijtimoiy muhitga moslashish, oila va mehnat rollarini muvofiqlashtirish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojning ortishi boshqalarning xatti-harakatiga nisbatan aniq kutishlar va talablarning shakllanishini kuchaytirishi mumkin.

Tafakkurning ratsionallik darajasi bo‘yicha ham jinslar o‘rtasida statistik ahamiyatli farq qayd etilgan (U=15009,5; p<0,05). Erkaklarning o‘rtacha rangi 200,13 ni, ayollarniki esa 173,89 ni tashkil etgan. Tahlillardan ko‘rinadiki, mazkur ko‘rsatkich erkaklarda nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Bu ularda vaziyatlarni tahlil qilish, muammoning sabab va oqibatlarini mantiqiy bog‘lash, muqobil yechimlarni baholash hamda qaror qabul qilishda ratsional yondashuv elementlarining nisbatan faolroq namoyon bo‘lishidan dalolat berishi mumkin. Shu bilan birga, erkaklarda katastrofizatsiya va o‘ziga nisbatan qat’iy talablarning ham yuqoriligi ratsional fikrlash bilan ayrim rigid yoki irratsional kognitiv sxemalar bir shaxsda parallel ravishda namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Frustratsion tolerantlik (U=16557,5; p>0,05) hamda baholovchi ustanovka (U=17157,0; p>0,05) shkalalarida esa jinslar o‘rtasidagi farqlar statistik ahamiyatga ega emas. Demak, frustratsion vaziyatlarga munosabat va voqea-hodisalarni umumlashtirilgan baholash tendensiyalari jins omiliga bevosita bog‘liq bo‘lmay, respondentlarning individual tajribasi, moslashuv imkoniyatlari va mavjud ijtimoiy sharoitlari bilan ko‘proq belgilanadigan xususiyat sifatida namoyon bo‘lgan.

Jins omili ichki migrantlarning irratsional ustanovkalari strukturasiga differensial ta’sir ko‘rsatadi. Erkaklarda katastrofizatsiya, o‘ziga nisbatan qat’iy talablar va tafakkurning ratsionallik darajasi ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lsa, ayollarda boshqalarga nisbatan qat’iy talablar ustunligi kuzatilgan. Mazkur holat ichki migratsiya jarayonida erkak va ayollarning ijtimoiy rollari, mas’uliyatni qabul qilish shakllari, atrofdagilardan kutilmalar hamda murakkab vaziyatlarni kognitiv baholash usullarining o‘ziga xosligini ifodalaydi.

Muhokama. Olingan empirik natijalar migratsiya jarayonida huquqbuzarlik profilaktikasini amalga oshirishda gender omili migrantlarning psixologik holati va

xulq-atvorini bir xil yo‘nalishda belgilovchi universal determinant emas, balki xavotirlanish, ijtimoiy munosabatlar, kognitiv baholash va irratsional ustanovkalarning turli komponentlarini differensiallashtiruvchi muhim ijtimoiy-psixologik atribut ekanligini ko‘rsatdi. Erkak va ayol migrantlarda aniqlangan farqlar huquqbuzarlik xavfining psixologik asoslari hamda profilaktik ta’sir yo‘nalishlari genderga ko‘ra muayyan xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkinligini asoslaydi.

Xususan, shaxsiy xavotirlanishning umumiy darajasi bo‘yicha ayollarda o‘rtacha rangning yuqoriroq ekanligi migratsiya sharoitidagi noaniqlik, ijtimoiy muhitning o‘zgarishi, kelajakni prognoz qilish va ehtimoliy salbiy oqibatlarni baholashga nisbatan emotsional sezgirlik ayol migrantlarda kuchliroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday holatni huquqbuzarlikning bevosita sababi emas, balki uzoq davom etganda moslashuv resurslarini susaytirishi, emotsional zo‘riqishni kuchaytirishi va konstruktiv qaror qabul qilishni qiyinlashtirishi mumkin bo‘lgan psixologik risk foni sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Maktab bilan bog‘liq xavotirlanish ko‘rsatkichida ham ayollarning ustunligi aniqlangan. Bu holat avvalgi baholovchi vaziyatlar, ijtimoiy nazorat, muvaffaqiyatsizlik va tashqi bahoga nisbatan sezgirlik bilan izohlanishi mumkin. Migratsiya sharoitida mazkur psixologik xususiyat ish beruvchi, rasmiy institutlar yoki yangi ijtimoiy guruhlar bilan munosabatlarda xavotirning kuchayishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli ayol migrantlar bilan profilaktik faoliyatda huquqiy axborot bilan bir qatorda psixologik xavfsizlik, emotsional o‘zini o‘zi boshqarish, stressga chidamlilik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslarini rivojlantirish muhimdir.

Shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq xavotirlanishda esa erkaklarning o‘rtacha rangi yuqori bo‘lgani kuzatildi. Bu erkak migrantlarda ijtimoiy mavqeni saqlash, tengdoshlar yoki hamkasblar tomonidan qabul qilinish, raqobat va o‘z pozitsiyasini himoya qilish bilan bog‘liq ichki zo‘riqish kuchliroq bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Mazkur zo‘riqish konstruktiv kommunikativ va koping strategiyalari bilan tartibga solinmasa, ayrim vaziyatlarda impulsiv, nizoli yoki agressiv reaksiyalar uchun psixologik fon yaratishi mumkin. Shu bois erkak migrantlar bilan profilaktik ishda konfliktlarni konstruktiv hal etish, agressiyani boshqarish, kommunikativ kompetentlik va frustratsion vaziyatlarda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Irratsional ustanovkalar bo‘yicha natijalar ham gender differensiasiyasini aniqlashtiradi. Katastrofizatsiya ko‘rsatkichi bo‘yicha erkaklarning o‘rtacha rangi yuqoriligi murakkab yoki noaniq vaziyatlarning salbiy oqibatlarini keskinroq baholash tendensiyasi erkak migrantlarda kuchliroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Migratsiya jarayonida ishni yo‘qotish, daromadning pasayishi, ijtimoiy mavqening o‘zgarishi yoki nizoli vaziyatlarni jiddiy tahdid sifatida idrok etish xulqiy qarorlarning keskinlashishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan,

bunday kognitiv baholashlarni erta aniqlash va vaziyatlarni muqobil tarzda talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirish profilaktik ahamiyatga ega.

O‘ziga nisbatan qat’iy talablar shkalasida ham erkaklarda yuqoriroq ko‘rsatkich aniqlangan. Bu holat ijtimoiy va moddiy majburiyatlarni bajarish, muvaffaqiyatga erishish, oilani ta’minlash hamda o‘zining ijtimoiy samaradorligini tasdiqlashga doir rigid ichki talablarning kuchliroq bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. “Men albatta muvaffaqiyatga erishishim kerak” yoki “muammoni o‘zim hal qilishim shart” kabi absolyutlashtirilgan talablar resurslar yetishmagan vaziyatlarda frustratsiyani kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun profilaktik faoliyatda rigid ustanovkalarni moslashuvchan kognitiv qarashlarga transformatsiya qilish, muvaffaqiyatsizlikni konstruktiv qabul qilish va yordam so‘rashni adaptiv strategiya sifatida shakllantirish muhimdir.

Boshqalarga nisbatan qat’iy talablar ko‘rsatkichida ayollarning o‘rtacha rangi yuqori bo‘lgani ayol migrantlarda atrofdagilarning mas’uliyati, munosabati, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishi va qo‘llab-quvvatlashiga nisbatan kutilmalar kuchliroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Migratsiya sharoitida oilaviy va kasbiy rollarning uyg‘unlashuvi, xavfsizlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyojning ortishi bunday kutilmalarni kuchaytirishi mumkin. Ular qondirilmaganda emotsional zo‘riqish va shaxslararo nizolar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Shu bois profilaktik ishda kommunikativ moslashuvchanlik, realistik ijtimoiy kutilmalar va yordam resurslaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Tafakkurning ratsionallik darajasi bo‘yicha erkaklarda yuqoriroq o‘rtacha rang aniqlangani muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlashga yo‘naltirilgan kognitiv strategiyalar ularda nisbatan faolroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu xususiyat profilaktik ishda himoya resursi sifatida qaralishi mumkin. Biroq katastrofizatsiya va o‘ziga nisbatan qat’iy talablarning ham yuqoriligi ratsional tahlil qilish qobiliyati barcha holatlarda irratsional baholashlardan avtomatik ravishda himoya qilmasligini ko‘rsatadi. Demak, profilaktik faoliyat mavjud ratsional resurslarni mustahkamlash bilan birga rigid va katastrofik kognitiv sxemalarni korreksiya qilishga ham yo‘naltirilishi lozim.

Frustratsion tolerantlik ($U=16557,5$; $p>0,05$) va baholovchi ustanovka ($U=17157,0$; $p>0,05$) bo‘yicha jinslar o‘rtasida statistik ahamiyatli farqlarning aniqlanmagani ham muhim natijadir. Bu migratsiya jarayonida huquqbuzarlik xavfini faqat gender omili asosida tushuntirish metodologik jihatdan yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ayrim psixologik xususiyatlar migrantning yoshi, ma’lumoti, bandligi, migratsiya davomiyligi, iqtisodiy ahvoli, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi va individual hayotiy tajribasi bilan kuchliroq bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, o‘zini o‘zi baholash va irratsional tasavvurlar bilan bog‘liq xavotirlanish ko‘rsatkichlarida jinslararo ishonchli farq aniqlanmagani profilaktika tizimida umumiy va gender-differensial komponentlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Barcha migrantlar uchun huquqiy savodxonlik, stressni boshqarish, impulsiv xatti-harakatlarni nazorat qilish, konstruktiv koping va nizolarni tinch yo‘l

bilan hal etish bo‘yicha umumiy profilaktik yordam bilan bir qatorda, erkak va ayollarga xos psixologik risk profillariga mos maxsus modullarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Umuman, migratsiya jarayonida huquqbuzarlik profilaktikasining gender atributlari faqat “erkak-ayol” demografik farqi bilan emas, balki xavotirning mazmuniy yo‘nalishi, ijtimoiy kutilmalar, shaxslararo zo‘riqish, kognitiv rigidlik, katastrofik baholash va mavjud psixologik himoya resurslarining turlicha konfiguratsiyasi bilan belgilanadi. Erkaklarda shaxslararo xavotir, katastrofizatsiya va o‘ziga nisbatan qat’iy talablarning nisbatan yuqoriligi tashqi yo‘naltirilgan psixologik risklarni nazorat qilishni talab etsa, ayollarda umumiy xavotirlanish, baholovchi vaziyatlarga emotsional sezgirlik va boshqalarga nisbatan yuqori kutilmalar psixologik xavfsizlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va emotsional o‘zini o‘zi boshqarish resurslarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Migratsiya jarayonida huquqbuzarlik profilaktikasini amalga oshirishning gender atributlarini o‘rganish natijasida erkak va ayol migrantlarda psixologik risk hamda himoya omillarining o‘ziga xos konfiguratsiyasi mavjudligi aniqlandi. Gender omili barcha ko‘rsatkichlarni bir xil yo‘nalishda belgilamasdan, xavotirlanish, shaxslararo munosabatlar va irratsional-kognitiv ustanovkalarning ayrim komponentlarini differensiallashtirishi ma’lum bo‘ldi. Ayol migrantlarda shaxsiy xavotirlanishning umumiy darajasi ($U=14022,0$; $p<0,01$) va maktab bilan bog‘liq xavotirlanish ($U=14689,0$; $p<0,01$) yuqoriroq namoyon bo‘lishi ularning migratsion noaniqlik, baholovchi vaziyatlar va ehtimoliy salbiy oqibatlarga nisbatan emotsional sezgirligi kuchliroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu sababli ayollar bilan profilaktik ishlarni tashkil etishda emotsional zo‘riqishni kamaytirish, psixologik xavfsizlikni mustahkamlash, konstruktiv koping va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Erkak migrantlarda shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq xavotirlanish ($U=14988,5$; $p<0,05$), katastrofizatsiya ($U=14689,0$; $p<0,01$) va o‘ziga nisbatan qat’iy talablarning ($U=14453,0$; $p<0,01$) yuqoriroq namoyon bo‘lishi esa ijtimoiy mavqe, raqobat, mas’uliyat, muvaffaqiyatsizlik va konfliktli vaziyatlarni idrok etish bilan bog‘liq kognitiv-emotsional zo‘riqishning profilaktik ahamiyatini ko‘rsatadi. Erkak migrantlar uchun agressiyani boshqarish, konfliktni konstruktiv hal qilish, kognitiv rigidlikni pasaytirish, frustratsiyaga bardoshlilik va yordam so‘rashga tayyorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar samarali bo‘lishi mumkin. Boshqalarga nisbatan qat’iy talablarning ayollarda yuqoriroq namoyon bo‘lishi ($U=14689,0$; $p<0,01$) profilaktik jarayonda ijtimoiy kutilmalar va shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Tafakkurning ratsionallik darajasining erkaklarda yuqoriroq ekanligi ($U=15009,5$; $p<0,05$) esa profilaktik faoliyatda foydalanish mumkin bo‘lgan muhim kognitiv resurs sifatida baholanishi mumkin. Frustratsion tolerantlik, baholovchi ustanovka, o‘zini o‘zi baholash bilan bog‘liq xavotirlanish hamda irratsional tasavvurlar bilan bog‘liq xavotirlanishda statistik ishonchli gender farqlarining aniqlanmagani huquqbuzarlik profilaktikasini

faqat jins omiliga asoslangan tarzda tashkil etish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bois profilaktik modelda gender bilan bir qatorda migrantning yoshi, ma’lumoti, bandlik turi, migratsiya muddati, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va individual psixologik resurslarini kompleks hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. - 617 p.
2. Ajzen I. The theory of planned behavior // Organizational Behavior and Human Decision Processes. - 1991. - Vol. 50, No. 2. - P. 179–211. - DOI: 10.1016/0749-5978(91)90020-T.
3. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. - New York: Springer Publishing Company, 1984. - 445 p.
4. Berry J. W. Immigration, acculturation, and adaptation // Applied Psychology: An International Review. - 1997. - Vol. 46, No. 1. - P. 5–34. - DOI: 10.1111/j.1464-0597.1997.tb01087.x.
5. Bem S. L. Gender schema theory: A cognitive account of sex typing // Psychological Review. - 1981. - Vol. 88, No. 4. - P. 354–364. - DOI: 10.1037/0033-295X.88.4.354.
6. Eagly A. H., Wood W. Social role theory // Handbook of Theories of Social Psychology / ed. by P. A. M. Van Lange, A. W. Kruglanski, E. T. Higgins. - London: SAGE Publications, 2012. - Vol. 2. - P. 458–476. - DOI: 10.4135/9781446249222.n49.
7. Agnew R. Foundation for a general strain theory of crime and delinquency // Criminology. - 1992. - Vol. 30, No. 1. - P. 47–88. - DOI: 10.1111/j.1745-9125.1992.tb01093.x.
8. United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making Them Work. - New York: United Nations, 2010. - 124 p. - ISBN 978-92-1-130300-1.
9. Bauloz C., Walton-Roberts M., Jaji R., Lee T. Gender and migration: Trends, gaps and urgent action // World Migration Report 2024 / ed. by M. McAuliffe, L. A. Oucho. - Geneva: International Organization for Migration, 2024. - P. 165–195. - DOI: 10.1002/wom3.38
10. Abdusamatov K. U. The Impact of Family Celebrations on Stress, Emotional Well-Being, and Human Happiness // *Maktabgacha va maktab ta’limi*. - 2025. - Vol. 3, No. 5. - P. 14–24. - DOI: 10.5281/zenodo.15615941.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694